

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI KITOBGA BO'LGAN
QIZIQISHINI UYG'OTISH**

Shamuratova Sevinch Quvondiq qizi
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Olloyorova Sojida Jo'rabek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda oila va ta'lim muassasalarining hamkorligi haqida qanday chora- tadbirlar olib borilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otishga oid bir qator metod va usullar, tavsiyalar, keltirib o'tilgan. Kitobga bo'lgan munosabatning bugungi kun holati, va unga qanday chora-tadbirlar ko'rilishi haqida bir qator tavsiyalar berilgan.

**AROUSIN THE INTEREST OF CHILDREN OF PRESCHOOL ATGE IN
BOOKS**

Shamuratova Sevinch Quvondiq qizi
Teacher of the Urgench State Pedagogical Institute
Olloyorova Sojida Jo'rabek qizi
Student of Urgench State Pedagogical Institute

ANNOTATION: This article provides information on the cooperation of families and educational institutions in stimulating preschool children's interest in books. A number of methods and recommendations are made for stimulating children's interest in books. A number of recommendations are made about the current state of attitudes towards books and measures to be taken.

Вызвать интерес к книгам у детей дошкольного возраста
Шамуратова Севинч Кувондик кизи
Преподаватель Ургенческого государственного педагогического института
Аллаёрова Сожида Журабек кизи
Студентка Ургенческого государственного педагогического института

В статье представлена информация о сотрудничестве семьи и образовательных учреждений в стимулировании интереса детей дошкольного возраста к книге. Рекомендован ряд методов и приемов стимулирования интереса детей к книге. Дан ряд рекомендаций о современном состоянии отношения к книге и о том, какие меры следует предпринять для его решения.

Kalit so‘zlar: Kitob, maktabgacha ta’lim, katta guruh, o‘rta guruh, kichik guruh, ertak kitoblar, xalq ertaklari, she’r, hikoya.

Ключевые слова: книга, дошкольное образование, старшая группа, средняя группа, младшая группа, сказки, народные сказки, стихотворение, рассказ

Keywords: book, preschool education, senior group, middle group, junior group, fairy tales, folk tales, poem, story.

Kitob insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli xazinalar kaliti hisoblanadi. Uni qadrlash, hurmat qilish asrab-avaylashimiz lozim. Kitob o‘qish - uni mazmunini anglab yetish, unga singdirilgan ma’no mazmunini qalban tuyish va bu orqali ma’nan ozuqaga ega bo‘lishdir. Kitobni mutoalaa qiluvchi har qanday inson yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tizimi har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash hamda uni butun kelajagini belgilab beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga milliy qadriyatlarimizni ham millatimiz kelajagi bo‘lgan bolalarimiz qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan maskandir. Shu bois mamlakatimizda bu sohaga e’tibor yanada kuchaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu yoshda ular juda o‘yinqaroq bo‘lishadi va tabiiyki, ularda mutolaa qilish ko‘nikmasi shakllanmagan bo‘ladi. Bu yoshda bolalarning e’tiborini rangli kitoblar, qahramonlar tasvirlangan chiroyli suratli kitoblar ularning diqqatini oshiradi. Bolalar kutubxonaga borganda ham birinchi rangli, suratli, kitoblar oldiga chopadi.

Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqishi mavjud bo‘lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olishi lozim.¹ Mashhur shoirlar va yozuvchilar, pedagoglar A.Avloniy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy, S.Delimov, S.Rajavob, X.To‘xtaboyevlar ifodali o‘qishga yuqori baho berganlar. Ovozli o‘qish va

¹ Asqarov, I.B (2017). Bo‘ljak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tadqiqot faoliyati uchun tayyorlashning asosiy bosqichlari. Sharqiy Evropa ilmiy jurnali, (5).

so‘zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo‘lib, undan oilada ham keng foydalaniladi.²

Mashhur pedagog A.S.Makarenko oilada ovozli o‘qish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, imkoni boricha o‘qish har kuni va doimiy ravishda olib borilishi lozim.³ Kitobxonlikni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda ko‘rgazmalikka asoslangan bo‘ladi. Bolalar kitobxonligini o‘quvchilarning pedagogik- psixologik xususiyatlariga ko‘ra, quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2yoshdan 7 yoshgacha);

2.Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha);

3.O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).⁴

Maktabgacha ta’lim yoshidagi kitobxonlarga asosan ota-onalar , buvi-bobolar, tarbiyachilarning ta’siri katta bo‘ladi, chunki hali o‘qish va yozishni bilmagan bolaning kitobxonlik madaniyati do‘stlik, halollik, botirlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat g‘oyalariga asoslangan ertaklar tinglash orqali shakllanadi. Ertaklar xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang barang janrlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari topishmoqlar orqali bolalarning aqliy tafakkuri rivojlanadi, topqirlikka o‘rganadi. Maktabgacha ta’limdan kitobga mehr qo‘ygan kitobxon bora-bora o‘ziga mustaqil kitob tanlashga o‘rganadi.

Agar tahlil qiladigan bo‘lsak, ular Anvar Obidjonning “ G‘alati maktublar”, “Dahshatli meshpolvon”, Quddus Muhammadiyning “Erkinjon oyga chiqibdi”, Yusuf Shodmonning “Oydan kelgan bolalar” va shu kabi shoir va yozuvchilarning asarlarini juda katta qiziqish bilan tinglaydilar.

Merga M.Kristian bu o‘rinda o‘qituvchi va ota-onalarga quyidagi maslahatlarni beradi: bolalarni bolalar kutubxonasiga olib borish,ularga istagan kitobini olib berish, ovoz chiqarib o‘qishga yoki ovoz chiqarib o‘qib berish, qaysi asarni yoqtirayotganliklari bilan qiziqqan holda ular bilan tanishish orqali o‘smirlar bilan muloqotda bo‘lish, ijobiy qahramonni yoqtirib, salbiy qahramondan nafratlanish eng qiziq yeriga kelganda asarni tashlab ketish, bolalarni elektron qurilmalar bilan

² R.A.Mavlonova va boshqalar-Pedagogik texnologiya Fan 2008-y,20 bet.

³ J.G‘.Yo‘ldashev – Interfaol ta’lim sifat kafolati O‘MOI T – 2007 y, 30 bet.

⁴ Mamasoli Jumaboyev .Bolalar adabiyoti va folklor.Darslik 2006-yil 3-bet.

qurollantirishning o‘zi ularda kitobga bo‘lgan qiziqishni o‘z-o‘zidan yuzaga keltiradi, deb o‘ylash mumkin emas. 2 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan davrda bola o‘z onggi yordamida san’atni hayotdan ajrata olmaydi, shuning uchun badiiy asarlarga ham, o‘yinchoqqa yondashgan singari munosabatda bo‘ladi, yoki hayotning aynan o‘zi aks etadi, deb hisoblaydi, san’atni esa xuddi qiziqarli o‘yin kabi qabul qiladi. O‘zining asar matnida bayon qilingan voqealar to‘g‘risidagi tasavvurlarida bola hech qachon badiiy asar chegaralaridan chiqmaydi, bayon etilayotgan voqealarni real joy yoki vaqt bilan bog‘lamaydi, voqealikni o‘zicha o‘zgartiradi, unga yangi persanojlar yoki boshqa asarlardagi badiiy qahramonlarni qo‘shadi.

5 yosh va undan keying davr bolaning o‘zi mustaqil ravishda hayotni san’atdan farqlay boshlaydi. Bola badiiy asarni boshqacha fikrlar, tuyg‘ular va tasavvurga ega begona kishi tomonidan yaratilgan, ”o‘zga” dunyoning aksi sifatida qabul qila boshlaydi. Bu o‘rinda mahshur pedagog V.A.Suxomlinskiy kitob o‘qitishning ahamiyati haqida so‘z yuritir ekan, quyidagilarni yozadi: “Kitob bolalarning ma’naviy hayotida katta rol o‘ynaydi, faqat qachonki, bola yaxshi o‘qiy olsa.” Yaxshi o‘qish” deganda nima tushuniladi. Bu, avvalo, eng oddiy ko‘nikma-o‘qish texnikasini o‘zlashtira olishdir”.⁵ Kitob o‘qishda eng muhim omil-qiziqish sanaladi. Asar syujetining qiziqarliligi, bayon etish usulining sodda, ravonligi bolalarni kitobga bo‘lgan e’tiborini tortadi.

Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o‘qishga majburlash emas, eng avvalo kitobga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishimiz kerak. Xo‘sh qanday omillar bolalarni qiziqishini uyg‘otadi? Pedagogik kuzatishlar, va bolalarning ota-onalari bilan olib borilgan suhbatlar natijasida bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish quyidagi omillar yordamida yuzaga kelishiga ishonch hosil qilindi: **1)** kitobning o‘ziga xos shaklga egaligi; **2)** ko‘plab tasvirlar bilan boyitilganligi, ularni bezatishda yorqin ranglardan foydalanganlik; **3)** asar syujetining oson, ravon bayon etilganligi; **4)** asar qahramonlarining hayvonlar, o‘simliklar, gullar, qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlardan iborat bo‘lishi; shuningdek, sehrgarlik, sarguzasht va sayohatlarga asoslanganligi; **5)** asar xotimasining ijobiy yakuni bolajonlarda kitobga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishga xizmat qiladigan omillar hisoblanar ekan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok qilish, fikrlash tassavur etish shakllanib boradi. Ular kitobdagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlarini, kulguli voqea va

⁵ Suxomlinskiy V.A. ”Bolalarga yurakimni beraman” 2001-y, 287-bet.

hodisalarini, tasodiflarini ko‘proq eslab qoladilar. O‘qib chiqilgan asar bo‘yicha haddan tashqari ko‘p nasihat qilish katta, ko‘pincha esa tuzatib bo‘lmas ziyon etkazadi: maydachuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko‘z o‘ngida o‘zining barcha jozibadorligini yo‘qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo‘qoladi. Shuning uchun badiiy matnning tarbiya imkoniyatlariga to‘liq tayanish zarur.

XULOSA

Kitobxonlik – mehnatdir, inson ma’naviyatini yuksaltiradigan, aqliy mehnat sifatida katta qunt va diqqatni, sabr va bardoshni talab etadi, inson shuurini harakatga soladi. Kitobxonlik maktabgacha yoshdagi bolani mushohoda va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrini charhlaydi, teranlashtiradi, hodisalar mohiyatiga xos farqlar va mushtarak xususiyatlarni idrok qilishga, ulardan umumlashma xulosalar chiqarishga yo‘l ochadi. Tabiiyki, kitobxonlikda tashabbus hamisha kattalar tarafida bo‘ladi. Bunda bobolar yoki buvilarning bolalarga ertak go‘yiligi yoki ota va onalarning kitobxonligi ayriча ahamiyat kasb etadi. A. S. Pushkin iste’dodining kurtak otishida buvisi Arina Radionovna nechog‘li rol o‘ynagan bo‘lsa, “bolalik kunlarida, uyqusiz tunlarida” buvisi so‘zlab bergan ertaklar Hamid Olimjonda shoirlik iste’dodining uyg‘onishida shu qadar rol o‘ynagani inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.

To‘g‘ri, hozirgi axborotlar behad shiddat olayotgan bir sharoitda jamiyatda kitobxonlikda ham sur‘atda, ham mazmunda, ham shaklda talay o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Endilikda televidenie va kino uning ashaddiy raqibiga aylanib borayotgani inkor etib bo‘lmas haqiqatdir, to‘g‘risini aytganda. Televidenie ham, kino ham, teatr ham ommaviy kitobxonlikning tezkor va ko‘rimli shakllari bo‘lib, ommaning ma’naviy kamolotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotir. Qolaversa, bozor iqtisodiyoti sharoitida kitoblar narxining bir qadar qimmatlasha borayotgani oilaviy kitobxonlikda ma’lum muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shunday bir sharoitda televidenie, kino va teatr oilaviy kitobxonlik shaklida oila muhitiga singib borayotgan bo‘lsada, biroq bevosita kitobning o‘zini o‘qish kabi afzallikka, ega emasligidan ko‘z yummaslik darkor. Shu vajdan hamma zamonlarda ham kitob yetti mo‘jizaning biri sifatida kitobsevar elimiz ma’naviyatining ziynati bo‘lib qolaveradi.